

## TEKNOLOGIK TARAQQIYOT DAVRIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA KREATIV MULOQOTNING YO‘QOLISHIDAGI FALSAFIY YONDASHUVLAR

**Sherxanov Sultonmurod Davronboy o‘g‘li**

*Turan International University o‘qituvchisi*

[sultonmurodsherxanov@gmail.com](mailto:sultonmurodsherxanov@gmail.com)

**Mirzamaxmudova Shodiya Murodxon qizi**

*Turan International University talabasi*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada axborot – kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy muloqot jarayonlarida yuzaga kelayotgan muammolar atroflicha tahlil qilinadi. Muallif virtual dunyoga qaramlikning bolalar nutqi, dunyoqarashi va o‘zaro insoniy munosabatlariga salbiy ta‘sirini falsafiy va pedagogik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqola texnologik taraqqiyot sharoitida o‘quvchilarning jonli muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qayta tiklash va raqamli qurilmalarda foydalanish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Boshlang‘ich ta‘lim, texnologik taraqqiyot, raqamli avlod, muloqot inqirozi, virtual dunyo, jonli muloqot, gadjetlarga qaramlik, axborot asri, muloqot madaniyati, axloqiy tarbiya.*

### ABSTRACT

*This article analyzes social communication problems emerging among primary school students in the context of the rapid development of information and communication technologies. From a philosophical and pedagogical perspective, the author examines the negative impact of virtual world addiction on children`s speech, worldview, and interpersonal relationships. Furthermore, the article puts forward scientific proposals for restoring students` need for face-to-face communication in the era of technological progress and the rational use of digital devices.*

**Keywords:** *Primary education, technological progress, digital generation, communication crisis, virtual world, live communication, gadget addiction, information age, communication culture, moral education.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье анализируются проблемы социального общения, возникающие у учащихся начальных классов в условиях стремительного развития информационно – коммуникационных технологий. Автор рассматривает негативное влияние зависимости от виртуального мира на*

речь, мировоззрение и межличностные отношения детей с философской и педагогической точек зрения. Также в статье выдвигаются научные предложения по восстановлению потребности учащихся в живом общении в условиях технологического прогресса и по использованию цифровых устройств.

**Ключевые слова:** начальное образование, технологический прогресс, цифровое поколение, кризис общения, виртуальный мир, живое общение, зависимость от гаджетов, информационный век, культура общения, нравственное воспитание.

## KIRISH

Bugungi kunda axborot texnologiyalari va raqamli qurilmalar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, shaxs sifatida shakllanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun virtual dunyo asosiy muloqot maydoniga aylanib bormoqda. Biroq, texnologik taraqqiyotning ushbu shiddatli odimi o'z navbatida jiddiy ijtimoiy – pedagogik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

An'anaviy «yuzma-yuz» (jonli) muloqot o'rnini gadjetlar orqali amalga oshiriladigan virtual aloqa egallashi natijasida bolalarda emotsional intellektning pasayishi kuzatilmogda. Jonli muloqotda muhim hisoblangan:

- Mimika va imo – ishoralarni tushunish;
- Hissiy hamdardlik (empatiya) ko'rsatish;
- Fikrni og'zaki ravishda bayon etish kabi ko'nikmalar zaiflashmogda.

Falsafiy nuqtayi nazardan, inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, uning ma'naviy kamoloti boshqa insonlar bilan bevosita muloqotda bo'lishini taqozo etadi. Raqamli dunyoga haddan tashqari bog'lanib qolish bolani jamiyatdan uzib qo'yishi va «virtual izolyatsiya» ga olib kelishi mumkin.

Vizual kontentga (videolar, rasmlar) haddan tashqari bog'lanib qolish o'quvchining so'z boyligini cheklab qo'ymoqda. Bola o'z fikrini murakkab gaplar bilan emas, balki qisqa emotsiyalar yoki tayyor stikerlar orqali ifodalashga o'rganib qolmogda.

Jonli muloqotda inson qarshisidagi odamning ko'ziga qarashi, uning kayfiyatini his qilishi va kutilmagan savollarga tezkor javob berishi kerak. Virtual dunyoda esa o'ylash uchun vaqt bor yoki suhbatdan istalgan vaqtda shunchaki chiqib chiqib ketish mumkin. Bu esa bolalarda real hayotdagi to'qnashuvlar va ijtimoiy moslashuv oldida qo'rquv paydo qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan esa, bu holat ta'lim va tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. O'quvchi dars jarayonida diqqatni jamlashga qiynalishi, o'z tengdoshlari bilan nizolarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi

muloqot madaniyatining shakllanmaganligidan dalolat beradi. Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'p vaqtini gadgetlar bilan o'tkazadigan o'quvchilar atrofdagilarning gapiga reaksiya bildirmaslik, jamoaviy ishlardan qochish va faqat o'z dunyosiga qamalib olish kabi belgilarni namoyon qilmoqda. Xalqaro pedagogik tadqiqotlar (masalan, PISA va boshqa baholash tizimlari tahlili) shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli savodxonlik bilan bir qatorda « soft skills» ya'ni yumshoq ko'nikmalarni (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash) rivojlantirish boshlang'ich ta'limning eng ustuvor vazifasiga aylanishi zarur. Texnologiyadan voz kechish emas, balki uni insoniy munosabatlarga zarar yetkazmaydigan darajada jilovlash bugungi kun pedagogikasining bosh masalasidir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'tkazilgan pedagogik kuzatuvlar va mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot inqirozini bartaraf etish faqatgina gadgetlarni taqiqlash bilan hal bo'lmaydi. Bu jarayonda quyidagi natijalarga e'tibor qaratish lozim:

Jonli muloqotni qayta tiklashda « Interaktiv muhit « metodikasi eng yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda. Tajribalar shuni tasdiqladiki:

- Dars jarayonida guruxlarda ishlash ( kolaborativ ta'lim ) o'quvchilarning bir – biri bilan fikr almashish ehtiyojini 30 – 40% ga oshiradi.

- Rolli o'yinlar va sahnalashtirilgan chiqishlar bolalarda virtual dunyodagi « stikerli muloqot « dan voz kechib, boy nutq madaniyatiga o'tishga yordam beradi.

Haqiqiy muloqotda bola nafaqat so'z, balki mimika, jest va emotsiyadan foydalanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ekran qarshisida ko'p vaqt o'tkazgan bolalarda «jonli emotsional javob « (empathy) pasaygan. Texnologik taraqqiyot bolalarda « klipcha fikrlash « ni shakllantirdi. Natijada, ular uzoq vaqt davom etadigan jonli suhbatlarda diqqatni jamlay olmayaptilar

Muloqotning yo'qolishi – bu shunchaki gaplashmaslik emas, balki insoniy mohiyatning o'zgarishidir.

- Subyekt – obyekt munosabati: Agar haqiqiy muloqotda ikki inson (subyekt – subyekt) teng huquqli muloqot qilsa, gadgetlar bilan muloqotda bola « obyekt» ga aylanib qolmoqda. U faqat axborotni iste'mol qiladi, lekin uni ijodiy qayta ishlamaydi.

- Qadriyatlar transformatsiyasi: Falsafiy jihatdan muloqot – bu qadriyat uzatish ko'prigidir. Oila va maktabdagi jonli muloqotning virtual muloqotga almashishi milliy va ma'naviy qadriyatlarning filtrlangan axborotlar soyasida qolib ketishiga olib kelmoqda.

Taklif etilayotgan yechimlar: Tadqiqot davomida ushbu inqirozni bartaraf etish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlar samarali deb topildi:

- « Raqamli gigiyena « madaniyati: Maktab va oilada bolalarga texnologiyadan foydalanish vaqti bilan birga, uning mazmuni bo'yicha falsafiy suhbatlar tashkil etish.

- Kollektiv o'yinlar strategiyasi: Dars jarayonida faqat individual topshiriqlar emas, balki bolalarni bir – biri bilan ko'z kontakti o'rnatishga majbur qiladigan «dialog metodlar» ni qo'llash.

- Axloqiy – estetik muhit: Tabiat qo'yniga chiqish va san'at asarlarini jonli muhokama qilish orqali bolaning his qilish qobiliyatini qayta tiklash.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi insoniyat hayotiga «raqamli muloqot» tushunchasini olib kirdi. Ayniqsa, shaxs sifatida shakllanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu jarayon ikki yoqlama ahamiyatga ega. Bir tomondan, bilim olish manbalari kengaysa, ikkinchi tomondan, haqiqiy muloqot – ya'ni yuzma – yuz, hissiyotlarga boy va jonli muloqotning o'rni torayib bormoqda. Falsafiy va pedagogik nuqtayi nazardan, bu holat « ijtimoiy autism « yoki insonning jamiyatdan uzilib, virtual dunyoga g'arq bo'lishi ssifatida talqin qilinmoqda.

Haqiqiy muloqot nafaqat so'zlardan, balki verbal bo'lmagan ( imo – ishora, nigoh, tana tili ) signallardan tashkil topadi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, muloqotdagi axborotning 70 – 80 foizi aynan mana shu norasmiy belgilar orqali o'tadi. Raqamli qurilmalar esa ushbu muhim aloqa kanallarini « kesib» tashlaydi. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida suhbatdoshining emotsional holatini tushunish, unga hamdard bo'lish ( empatiya) va vaziyatga qarab muloqot ohangni o'zgartirish ko'nikmalari shakllanmay qolmoqda. Bu es kelajakda bolaning jamoaga kirishishida jiddiy to'siqlarni yuzaga keltiradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, texnologik taraqqiyot muloqotni « miqdor « jihatidan oshirdi, biroq « sifat « jihatidan qashshoqlashtirdi. Bola kun davomida yuzlab xabarlar ko'rishi yoki virtual o'yinlarda muloqot qilishi mumkin, lekin bu aloqalarda ma'naviy chuqurlik va mas'uliyat mavjud emas. Pedagogik jihatdan, boshlang'ich sinf davri – ijtimoiy rollarni o'rganish davridir. Agar ushbu bosqichda muloqot faqat ekran bilan cheklansa, bolada nutqning rivojlanishi sekinlashadi, fikrni mantiqiy izchillikda yetkazib berish qobiliyati pasayadi. Bu holat fanda « klipcha fikrlash « ( clip thinking ) deb atalib, bolaning axborotni faqat qisqa va vizual shaklda qabul qilishiga, chuqur tahlil qila olmasligiga sabab bo'ladi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivoji bolalarning kognitiv ( bilish) jarayonlariga ham ta'sir o'tkazmay qolmadi. Natijada darsda o'qituvchining 45

daqiqalik nutqini tinglash, matnni tahlil qilish yoki murakkab mantiqiy masalalarni yechish bolaga juda og'irlik qiladi. Virtual muloqotdagi « tezkor natija » ga o'rgangan bola real hayotdagi muloqotning « sekinligidan » zerika boshlaydi.

Dunyo pedgogikasi tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab rivojlangan davlatlarda, masalan, Fransiya va Janubiy Korea maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars vaqtida smartfonlardan foydalanishi qonun bilan cheklangan. Bu cheklov shunchaki taqiq emas, balki o'quvchilarni o'zaro jonli suhbatga, jamoaviy o'yinlarga qaratish strategiyasidir. Falsafiy – pedagogik taxlillar shuni ko'rsatadiki, bolaning intellektual salohiyati faqat kompyuter bilan emas, balki insonlar bilan bo'lgan munosabat orqali charxlanadi. O'zbekiston sharoitida ham « Milliy o'quv dasturi » doirasida o'quvchilarning muloqot ko'nikmalari ( soft skills ) rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur muammoni chuqurroq o'rganish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilari va ularning ota – onalari o'rtasida kichik ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning 75 foizi bo'sh vaqtini faqat gadgetlar bilan o'tkazishni afzal ko'radi. Jonli muloqotni tanlaganlar esa bor – yo'g'i 15 foizni tashkil etdi. Qolgan 10 foiz o'quvchi ikkala jarayonni ham teng ko'radi.

Ushbu faktlar shuni anglatadiki, maktab muhitida o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ehtiyoji sun'iy ravishda so'ndirilmogda. Tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, muntazam ravishda « jonli muloqot » darslari tashkil etilgan sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi 20 foizga yuqori bo'lgan. Bu esa muloqotning nafaqat ijtimoiy, balki akademik muvaffaqiyat uchun ham muhim ekanini isbotlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot inqirozi shunchaki vaqtinchalik holat emas. Bu jarayonni pedagogik nuqtayi nazardan muhokama qiladigan bo'lsak bir necha qarama – qarshi fikrlar yuzaga keladi. Ba'zi mutaxassislar texnologiyani ta'limning ajralmas qismi deb hisoblasada, ko'plab zamonaviy pedagoglar ( masalan: L. Vygotskiy nazariyasiga tayanib) bolaning ruhiy rivojlanishi faqat « bola – kattalar » muloqoti zanjirida amalga oshishini ta'kidlaydilar.

Bizning fikrimizcha, virtual olamning ijobiy tomonlarini ( tezkor axborot olish, vizual qabul qilish) inkor etmagan holda « jonli muloqot » ning o'rnini hech narsa bosa olmasligini tan olish zarur. Agar boshlang'ich sinf davrida « ijtimoiy intellekti past » mutaxassislar avlodi shakllanadi. Muhokama qilinayotgan muammoning yechimi sifatida dars jarayonlarida raqamli texnologiyalar va jonli muloqotning 70/30 nisbatini ( 70 foiz jonli muloqot, 30 foiz texnologiya) joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, muhokamajarayonida shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning muloqot madaniyatini oshirish faqat o'qituvchining vazifasi emas. Bu jarayonda davlat, maktab va oila uchlari birlikda harakat qilishi lozim. Virtual dunyo xavflaridan bolani himoya qilishning eng yaxshi yo'li – unga haqiqiy muloqotning naqadar go'zal va qiziqarli ekanligini amalda ko'rsatishdir.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, texnologik taraqqiyot insoniyatga mislsiz imkoniyatlar eshigini ochgan bo'lsa-da, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy – ruhiy olami va ijtimoiy ko'nikmalariga o'ziga xos « tahdid» larni ham olib keldi. O'tkazilgan tahlillar va falsafiy – pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, haqiqiy muloqotning yo'qolishi shunchaki nutqning kamayishi emas, balki shaxs shakllanishidagi fundamental bo'shliqdir. Raqamli dunyoga qaramlikning kuchayishi insoniy muloqotning emotsional komponentlarini qadrsizlantirib, bolalarni jamiyatning faol a'zosi emas, balki tayyor axborot iste'molchisi sifatida shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon natijasida vujudga kelgan muloqot inqirozi kelajakda shaxslararo munosabatlarning sovuqlashishiga va ijtimoiy hamjihatlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Pedagogik nuqtayi nazardan, bolaning dunyoqarashi faqat vizual tasvirlar bilan cheklanishi unda mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuv imkoniyatlarini pasaytiradi. Zero, haqiqiy muloqotda mavjud bo'lgan mas'uliyat hissi va empatiya (birovni tushunish) tuyg'usi virtual aloqada o'z ahamiyatini yo'qotadi. Bugungi kun pedagogi va ota – onasi oldida turgan dolzarb vazifa – texnologiyadan voz kechish emas, balki uning me'yorini to'g'ri belgilashdir. Insoniy muloqot – shaxs bo'lib yetishishning bosh sharti ekanligini unutmaslik, ta'lim tizimida jonli suhbat san'atini qayta tiklash millat istiqboli uchun strategic ahamiyatga egadir. Faqatgina texnik taraqqiyot va ma'naviy muloqot o'rtasidagi oltin muvozanatni toppish orqali barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

### **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh. M. « Yangi O'zbekiston strategiyasi » . – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Vygotskiy L. S. « Psixologiya razvitiya cheloveka ». – Moskva: Eksmo, 2005 ( Bolalar rivojlanishida muloqot o'rni bo'yicha fundamental asar).
3. G'oziyev E. E. « Psixologiya ( Ontogenez psixologiyasi)». – Toshkent: Noshir, 2010.
4. Sultanova G.A. « Pedagogik mahorat». – Toshkent Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

5. Mehrabian A. « Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes». – Belmont, CA: Wadsworth, 1971. ( Muloqotning 70- 30 nisbati bo'yicha asosiy manba).
6. O'zbekiston Respublikasining « Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Safarova R. G'. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi. – Toshkent, 2018.
8. Yo'ldoshev J. G'. Zamonaviy pedagogika asoslari. – Toshkent: fan va texnologiya, 2014.
9. Xasanboyeva O. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: fan,2011.
10. Ziyonet.uz – O'zbekiston axborot ta'lim tarmog'i materiallari.
11. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi hujjatlari milliy bazasi.